IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab–quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2023 yilning 1 aprel holatiga 1 7433 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2022 yilning shu davriga nisbatan 86,1 foizga ko‘pdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023 yilning yanvar-mart holatiga (jamiga nisbatan foizda) (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



2023- yilning yanvar-martrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi **72,8** foizni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **12,0** birlikni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-martr holatiga **1 031** ta kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **77,6** foizga ko‘p demakdir.





2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 31,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida (27,4 %), sanoat sohasida (18,2 %) va qurilishda (4,0 %) tashkil etilgan.

2023 yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 1 454,4 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 79,9 %) o‘zlashtirildi va 2022 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 94,6 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 625,6 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 95,0 %) va 2022 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 98,7 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 414,3 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining улуши 63,6 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 1 254,7 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 58,7 %) 2022 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 105,1 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 246,2 mlrd. so‘mni (jami chakana tovar aylanmasining 15,8 %) 2022 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 135,7 foizni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 15,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 31,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 210,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 96,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 4 099,6 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 94,1 %) 2022 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 110,9 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 26 853,5 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 98,1 %) 2022 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 101,7 foizni tashkil qildi;

2023 yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 72,8 foizni, sanoatda – 63,6 foizni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 98,7 foizni, qurilishda – 95,0 foizni, eksportda – 31,9 foizni tashkil qilgan.

Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so‘mda)

2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (292,8 mlrd. so‘m), G‘allaorol (1 634,6 mlrd. so‘m),Forish (90,8 mlrd. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



Jizzax viloyati bo‘yicha ko‘p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (323,8 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (105,8 mlrd. so‘m), G‘allaorol (106,1 mlrd. so‘m) va Zomin (104,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2023 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy ko‘rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, *% da*

	Sanoat	*Qurilish*	*Xizmatlar*	*Qishloq xo‘jaligi*
Jizzax viloyati	**63,6**	**95,0**	**58,7**	**98,7**
shahar:				
Jizzax	33,1	97,0	37,5	94,6
tumanlar:				
Arnasoy	95,7	100,0	69,4	99,9
Baxmal	100,0	100,0	62,7	99,8
G‘allaorol	99,0	99,3	75,2	98,7
Sharof Rashidov	48,9	100,0	82,4	98,8
Do‘stlik	12,0	100,0	69,7	99,8
Zomin	39,5	73,9	71,4	97,6
Zarbdor	22,9	83,3	68,4	98,6
Zafarobod	8,1	100,0	69,6	99,0
Mirzacho‘l	100,0	100,0	65,8	99,7
Paxtakor	37,5	100,0	73,7	99,1
Forish	97,7	100,0	73,4	97,3
Yangiobod	100,0	100,0	83,1	99,5

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari sohalar bo‘yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog‘ida kichik tadbirkorlik Do‘stlik (12,0 %), Zafarobod (8,1 %), Zarbdor (22,9 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal (100,0 %), Mirzacho‘l (100,0 %),Yangiobod (100,0 %) tumanlarida nisbatan yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog‘ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Zomin tumanida (73,9 %), Zarbdor tumanida (83,3%) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o‘ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (37,5 %), Baxmal tumani (62,7 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo‘lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o‘ringa ega.

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo‘shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.